

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIY XAVFSIZLIGINI
TA’MINLASH MASALALARI**

Tuxliboyeva Oydinoy O‘tkirbek qizi

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti talabasi Ilmiy rahbar:
professor v/b p.f.d. (PhD) N.M.Akayeva*

Annotatsiya

Globallashuv jarayonining chuqurlashuvi va raqamli kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash masalasini milliy xavfsizlik tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Ushbu maqolada ma’naviy xavfsizlik tushunchasining ilmiy-falsafiy mohiyati, globallashuv sharoitida yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatayotgan axborot xurujlari va “ommaviy madaniyat” tahdidlari, shuningdek, yoshlarda ma’naviy immunitetni shakllantirish hamda ularning ma’naviy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

globallashuv, ma’naviy xavfsizlik, yoshlar, ma’naviy immunitet, axborot xuruji, ommaviy madaniyat, mafkuraviy tahdid, milliy qadriyatlar, media savodxonlik, axborot iste’moli madaniyati.

**ISSUES OF ENSURING THE SPIRITUAL SECURITY OF YOUTH IN THE
CONTEXT OF GLOBALIZATION**

Abstract

The deepening of the globalization process and the rapid development of digital communication tools are turning the issue of ensuring the spiritual security of youth into one of the priority areas of the national security system. This article analyzes the scientific and philosophical essence of the concept of spiritual security, the information attacks and threats of “mass culture” affecting the minds of young people in the context of globalization, as well as the formation of spiritual immunity in youth and preventive measures aimed at ensuring their spiritual security.

Keywords

globalization, spiritual security, youth, spiritual immunity, information attack, mass culture, ideological threat, national values, media literacy, culture of information consumption.

**ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДУХОВНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

Аннотация

Uglublenie processa globalizatsii i stremitelnoe razvitiye tsifrovyykh sredstv kommunikatsii prevrashchayut vopros obespecheniya dukhovnoy bezopasnosti molodёji v odno iz prioritetnykh napravleniy sistemy natsionalnoy bezopasnosti. V dannoy statyye analiziruyutsya nauchno-filosofskaya sushchnost ponyatiya dukhovnoy bezopasnosti, informatsionnyye ataki i ugrozy «massovoy kultury», vliyayushchie na soznaniye molodёji v usloviyakh globalizatsii, a takzhe меры профилактики, napravlennyye na formirovaniye dukhovnoy immuniteta.

Ключевые слова

глобализация, духовная безопасность, молодёжь, духовный иммунитет, информационная атака, массовая культура, идеологическая угроза, национальные ценности, медиаграмотность, культура потребления информации.

KIRISH

Globalashuv – zamonaviy dunyoning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarini bir-biriga chambarchas bog‘lab, yaxlit makonga aylantirayotgan murakkab va ziddiyatli jarayondir. U bir tomondan xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi, ilm-fan, texnologiya va madaniyat almashinuvi uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratasa, ikkinchi tomondan milliy o‘ziga xoslik, an‘naviy qadriyatlar va ma‘naviy poydevorlar uchun jiddiy sinovlarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, ijtimoiy ongi endi shakllanib kelayotgan, hayotiy tajribasi yetarli bo‘lmagan yosh avlod ushbu jarayonning ta‘siriga eng beriluvchan ijtimoiy guruh hisoblanadi.

Bugungi murakkab olamda barcha sohalarining raqamlashuvi hamda inson faoliyatining tobora kengayib borayotgan qismi kiber makonga ko‘chayotgani natijasida yoshlar ongiga ta‘sir o‘tkazishning yangi mexanizmlari vujudga kelmoqda. Bir davlatni boshqa davlat tomonidan qurol yordamida bosib olish xavfi nisbatan kamayib, global axborotlashuv ta‘sirida ma‘naviy omillar vositasida boshqa xalqlar ongi, qalbi va ruhiyatiga ta‘sir o‘tkazish imkoniyatlari beqiyos darajada oshdi [13]. Aynan shu sababli, yoshlar ma‘naviy xavfsizligini ta‘minlash masalasi nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham favqulodda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda yoshlar siyosatining davlat darajasiga ko‘tarilgani, jumladan, “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ning qabul qilingani [17] yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ma‘naviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanganidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan, globalashuv sharoitida yoshlar ma‘naviy xavfsizligini ta‘minlash masalalarini alohida tadqiqot obyekt sifatida ilmiy o‘rganish zarurati tug‘iladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma‘naviy xavfsizlik va globalashuv sharoitidagi mafkuraviy tahdidlar muammosi xorijiy va mahalliy olimlarning ko‘plab tadqiqotlarida o‘rganilgan. Globalashuvning madaniy o‘lchovi va uning milliy o‘ziga xoslikka ta‘siri masalasini tahlil qilgan Z. Bauman zamonaviy jamiyatda shaxs va ijtimoiy guruhlarning identikligi beqaror, “suyuq” xususiyat

kasb etayotganini, bu esa ma'naviy mo'ljallarning chalkashuviga olib kelayotganini ta'kidlaydi [12].

Axborot asrida hokimiyatning kuch ishlatishga emas, balki qadriyatlar, madaniyat va g'oyalar orqali ta'sir o'tkazishga (“yumshoq kuch” – soft power) asoslanayotgani G'arb siyosatshunosligida keng tahlil qilingan bo'lib, bu yondashuv yoshlar ongini egallashga qaratilgan zamonaviy axborot-psixologik ta'sir mexanizmlarining mohiyatini tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [16].

Mahalliy tadqiqotchilardan ma'naviy xavfsizlikning ichki va tashqi tahdidlari, uning milliy xavfsizlik tizimidagi o'rni masalasi atroflicha yoritilgan. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik tizimining ma'naviyat bilan uzviy bog'liqligi ta'minlangandagina milliy xavfsizlikning yaxlit tizimini shakllantirish mumkin, ma'naviy xavfsizlik barqarorligini ta'minlashda esa ma'naviy omil yetakchi o'rin tutadi [13].

Yoshlarda axborot xurujlariga qarshi ma'naviy va axloqiy immunitetni shakllantirish masalasi qator ilmiy ishlarda tadqiq etilgan. Ushbu manbalarda “ommaviy madaniyat”ni madaniy-ma'naviy integratsiya bilan aralashtirib yubormaslik lozimligi, chunki u madaniyatsizlik va axloqsizlik unsurlaridan tashkil topgan aksilmadaniyat ekanligi alohida qayd etiladi; yoshlarni shunday ta'sirdan himoya qilish va ularda immunitetni shakllantirish eng muhim masalalardan biri sifatida baholanadi.

Axborotlashuv jarayonida yoshlar dunyoqarashi va ma'naviyatiga ta'sir masalasini o'rgangan tadqiqotchilar internet orqali ijobiy ma'lumotlar bilan birga Sharq madaniyatiga va yoshlarning axloq-odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham kirib kelishini, buning oldini olish uchun yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirib borish lozimligini asoslab beradilar. Ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta'siri, uning ijobiy va salbiy jihatlari hamda ijtimoiy tarmoqlar, kino, reklama va musiqa orqali tarqalish mexanizmlari ham alohida tadqiq qilingan [8].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'naviy xavfsizlik va globallashtirish sharoitidagi tahdidlar muammosi keng o'rganilgan bo'lsa-da, yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning yaxlit tizimi, uning omillari va profilaktik choratadbirlar majmuini falsafiy-ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilish masalasi yana ham chuqurroq tadqiqotni taqozo etadi. Mazkur maqolada tahlil, sintez, qiyosiy hamda tizimli-strukturaviy yondashuv metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'naviy xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, milliy o'ziga xosligi, tarixiy xotirasi va dunyoqarashini turli ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilingan holatidir. U milliy xavfsizlikning iqtisodiy, siyosiy va harbiy tarkibiy qismlari bilan bir qatorda turuvchi, ammo ulardan farqli o'laroq inson ongi va qalbiga yo'naltirilgan, ko'rinmas, biroq oqibatlarini nihoyatda chuqur bo'lgan o'ziga xos sohadir. Ijtimoiy-tarixiy tajribadan ma'lumki, muayyan mamlakatni zabt etmoqchi bo'lgan kuchlar, avvalo, xalqning ruhiyati, ma'naviyati va qadriyatlariga bolta urishga harakat qiladi; milliy

ma'naviyati va qadriyatlari parokanda etilgan xalq o'zligini yo'qotadi va begona mafkura ta'siriga tushib qoladi [13].

Ma'naviy xavfsizlikka ta'sir etuvchi tahdidlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Ichki tahdidlarga jamiyatdagi ma'naviy bo'shliq, qadriyatlar tizimidagi nomutanosiblik, ayrim shaxslar ongidagi eskicha qarashlar va niyati buzuq kimsalarning yoshlarni yo'ldan urishga urinishlari kiradi. Tashqi tahdidlar esa, asosan, globallashuv va axborotlashuv sharoitida tashqaridan, ya'ni axborot makoni orqali kirib keladigan mafkuraviy tajovuzlar, “ommaviy madaniyat” niqobidagi g'arazli ta'sirlar va axborot xurujlarida namoyon bo'ladi.

Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviy xavfsizligiga eng jiddiy tahdidlardan biri – axborot xurujlaridir. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan qo'poruvchilik ruhidagi axborotlar ba'zan harbiy harakatlar bilan ham erishib bo'lmaydigan maqsadlarga xizmat qilishi mumkin; bunday axborot xurujlari yoshlarning ma'naviy-axloqiy va psixologik dunyoqarashini izdan chiqarishga qaratilgan bo'ladi [7]. Axborot xurujlari inson ongiga, axloqiga va ijtimoiy qarashlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatib, milliy qadriyatlarga befarqlik, tarixiy xotiraning xiralashuvi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Yana bir keng tarqalgan tahdid – “ommaviy madaniyat”ning salbiy ko'rinishlaridir. Tadqiqotchilar haqli ravishda ta'kidlaganidek, madaniy-ma'naviy integratsiyani “ommaviy madaniyat” bilan aralashtirib yuborish mumkin emas, zero ikkinchisi ko'pincha madaniyatsizlik va axloqsizlik unsurlaridan tashkil topgan aksilmadaniyat sifatida namoyon bo'ladi [8]. Bunday ta'sir oqibatida yoshlar orasida odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlarga hurmatning pasayishi, hayotning ma'nosini yuzaki o'yin-kulgi va iste'molchilikdagina ko'rish kabi salbiy moyilliklar kuzatilishi mumkin [6].

Globallashuv sharoitida ma'naviy ta'sirning o'ziga xosligi shundaki, u ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri majburlash emas, balki “yumshoq kuch” (soft power) shaklida, ya'ni jozibador hayot tarzi, ko'ngilochar mahsulotlar, moda va ommabop kontent vositasida amalga oshiriladi. Bunday ta'sir yoshlar tomonidan tahdid sifatida emas, balki ixtiyoriy tanlov sifatida qabul qilinadi, bu esa uning xavfini yanada oshiradi. Natijada milliy o'ziga xoslik o'rnini sekin-asta begona qadriyatlar egallashi, yoshlarning tarixiy-madaniy ildizlardan uzoqlashishi xavfi paydo bo'ladi [16]. Zamonaviy jamiyatda shaxs identikligining beqaror, “suyuq” xususiyat kasb etayotgani [12] ushbu jarayonni yanada murakkablashtiradi: o'z ma'naviy mo'ljaliga ega bo'lmagan yosh inson tashqi ta'sirlar oldida himoyasiz bo'lib qoladi.

Ma'naviy xavfsizlik tushunchasini boshqa xavfsizlik turlaridan ajratib turuvchi muhim jihat – uning obyekti moddiy resurslar emas, balki inson ongi, qalbi va dunyoqarashi ekanligidir. Aynan shu sababli unga keltirilgan zararni darrov sezish va o'lchash qiyin; ma'naviy tahdidlarning oqibatlari ko'pincha yillar o'tib, jamiyatda qadriyatlar inqirozi, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy uzilish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shu boisdan ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash uzluksiz, oldindan rejalashtirilgan va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Mazkur tahdidlarga qarshi turishning eng samarali vositasi – yoshlarda ma’naviy immunitetni shakllantirishdir. Ma’naviy (mafkuraviy) immunitet deganda shaxsning zararli va yot g‘oyalarni o‘z vaqtida ajrata olish, ularning ta’siriga berilmaslik va ongli ravishda qarshi tura olish qobiliyati tushuniladi. Taqiqlar yoki filtr vositalari orqali yoshlarni axborot makonidagi salbiy ta’sirlardan to‘liq himoya qilish qiyin va bu faqat vaqtinchalik chora bo‘lib qolishi mumkin; shu sababli asosiy e’tibor yoshlar qalbi va ongida bolalik chog‘idan boshlab sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga qaratilishi lozim [6].

Yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash yagona usul bilan emas, balki o‘zaro bog‘liq chora-tadbirlar majmui orqali amalga oshirilishi kerak. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: birinchidan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida media savodxonlik kurslarini joriy etish hamda yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish; ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda milliy g‘oya, tarix va qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi raqobatbardosh kontent yaratish; uchinchidan, blogerlar, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy mas’uliyatini oshirish; to‘rtinchidan, soxta axborotlarga qarshi monitoring tizimlarini takomillashtirish [5].

Shu bilan birga, ma’naviy immunitetni mustahkamlashda buyuk mutafakkirlarning falsafiy-axloqiy merosidan, milliy ta’lim-tarbiya an’analaridan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda oila, ta’lim muassasalari, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining uyg‘un hamkorligi yoshlar ma’naviy olamida bo‘shliq yuzaga kelishining oldini oluvchi yaxlit tarbiya muhitini yaratadi.

Xalqaro tajriba ham shuni tasdiqlaydiki, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda zamonaviy axborot vositalarini chetlab o‘tib emas, balki ulardan oqilona foydalangan holda harakat qilish samaralidir. Yoshlar uchun jozibador, ham ma’rifiy, ham ko‘ngilochar bo‘lgan milliy kontent yaratish, ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda raqamli platformalarda faol ishtirok etish bugungi kunning ustuvor vazifasidir. Aks holda yoshlar ma’naviy olamida yuzaga kelgan bo‘shliqni muqarrar ravishda begona va ko‘pincha zararli mazmun to‘ldiradi. Demak, ma’naviy xavfsizlik strategiyasining markazida “taqiqlash” emas, “muqobil yaratish” tamoyili turishi lozim.

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan kuzatishlar yoshlarning aksariyati milliy qadriyatlarga sodiq qolayotganini, xorijiy ta’sirlar ko‘proq tashqi atributika (kiyinish, musiqa, bo‘sh vaqtni o‘tkazish usullari) bilan cheklanayotganini ko‘rsatadi. Biroq ayrim hollarda bunday ta’sirlar chekish, spirtli ichimlik iste’moli va tartibbuzarlik kabi salbiy illatlarning ommalashuviga zamin yaratishi mumkin. Shu bois davlat siyosati darajasida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli choralar – “Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” doirasidagi tadbirlar [17] muhim profilaktik vazifani bajaradi.

XULOSA

Globalashuv sharoitida yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash zamonaviy jamiyatning eng dolzarb va strategik ahamiyatga ega vazifalaridan biriga aylangan. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas

tarkibiy qismi bo‘lib, uning barqarorligi ko‘p jihatdan yosh avlodning mafkuraviy va axloqiy immuniteti darajasiga bog‘liqdir. Axborot xurujlari va “ommaviy madaniyat”ning salbiy ko‘rinishlari yoshlar ongi va qalbiga yo‘naltirilgan asosiy tahdidlar bo‘lib, ularga qarshi faqat taqiq va cheklov bilan emas, balki ijobiy mazmunli, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya orqali samarali kurashish mumkin.

Shu boisdan, yoshlar ma‘naviy xavfsizligini ta‘minlash maqsadida davlat va jamoatchilik institutlari tomonidan tizimli, uzluksiz va kompleks profilaktik choratadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish zarur. Bunda media savodxonlikni oshirish, axborot iste‘moli madaniyatini shakllantirish, milliy g‘oya va qadriyatlarni zamonaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilish, oila, ta‘lim va jamiyat hamkorligini mustahkamlash yetakchi yo‘nalishlar hisoblanadi. Aynan ana shunday yaxlit yondashuv yosh avlodning ma‘naviy olamida bo‘shliq yuzaga kelishining oldini olib, ularning sog‘lom, barkamol va vatanparvar shaxs sifatida shakllanishini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘affarova G.G‘. Yoshlar submadaniyati fenomeni: falsafiy tahlil // NamDU Ilmiy axborotnomasi. – 2025. – 3-son. – B. 331–334.
2. Karimova N. Yoshlar orasida flesh-mob hodisalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini // O‘zbekiston sotsiologiyasi jurnali. – 2022. – № 2. – B. 45–53.
3. Qosimova M.R. Yoshlar submadaniyati va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 25–36.
4. Toshbekova M.X. Globallashuv jarayonida mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish omillari // Ilmiy maqolalar to‘plami. – 2021.
5. Abdurazzoqov N.K. O‘smirlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta‘minlashning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari // Ilmiy axborotnoma. – 2021.
6. Sultanov S.H. Yoshlar ma‘naviyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar // Oriental Renaissance jurnali. – 2023.
7. Dusboyev A.T. Axborot makonida salbiy axborot-psixologik xurujlar va kiberjinoyatchilikning yoshlar ma‘naviy yuksalishiga ta‘siri // Ilmiy jurnal. – 2022.
8. Bog‘ibekova M.A. Ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta‘siri // Modern education and development. – 2025. – № 8.
9. Tashmetov T.X. Internet orqali turli xil g‘oyalarni yoshlar ongiga singdirishning muhim jihatlari // Ilmiy axborotnoma. – 2021.
10. Boynazarov O.F. Yangi virtual olamda inson axloqiy ongining transformatsiyasi // Ilmiy jurnal. – 2021.
11. Israilova S., Jurayev Sh., Absoatova Z. Ijtimoiy tarmoqlarning aholi, ayniqsa, yoshlar ma‘naviy-axloqiy tarbiyasiga ta‘siri. – 2023. – <https://doi.org/10.5281/zenodo.7643858>
12. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – P. 45–67.

13. Soliyev O. Xavfsizlik masalalari, muammolari va ularning kelib chiqishi // Ilmiy axborotnoma. – 2021.

14. Levikova S.I. Neformalnaya molodyojnaya subkultura. – Moskva: Vuzovskaya kniga, 2010. – 616 s.

15. Nye J.S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: Public Affairs, 2004.

16. Ibragimov N.N., Abduraxmanov V.A., Amirov A.D. va boshq. Globallashuv jarayonida axborot xavfsizligi va ahamiyati // Oriental Renaissance jurnali. – 2023.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. – <https://lex.uz/docs/-5234746>